



АКТУАЛЬНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ

СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ

Выпуск 9
Часть 2

Переяслав-Хмельницкий
2016

Zohidova Go'zal Elbekovna
(Toshkent, O'zbekiston)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA
“MEHMONDO'STLIK” KONSEPTINING
LINGUA KULTURALOGIK TAHLILI

Dunyoda turli millatlar bor ekan, ular bilan turli tillar va turlicha madaniyatlar yashaydi. Biror millat tilini o'rganish bilangina u millat vakili bilan erkin va ravon munosabatga kirishib bo'lmaydi. Allbatta buning uchun o'sha millat madaniyatini ham o'rganish, ayniqsa uni til bilan bog'lagan holda o'rganish orqali yuqoridaq natijaga erishish mumkin. Shu jarayondagi tilni madaniyat bilan va aksincha, madaniyatni til bilan bog'lab o'rganadigan soha bu “lingua kulturalogiyaadir”.

Ushbu fan tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro qo'shilishi yoki aloqadorligidan yuzaga kelgan fandir. Shu o'rinda madaniyat nimaligini va unga berilgan ta'riflarni ham qisqacha ko'rib chiqsak.

“Madaniyat bu insонning yashash tarzidir. U bizning borligimiz, o'ylash, his qilish, va boshqalarga bog'liqligimiz jarayonini mujassamlagan tushunchadir. U bir guruh odamlarni birga jipslashtiruvchi “kleydir” deb yozadi H. Douglas Brown [1, b.182]. Larson va Smalley(1972) [2, b. 24] lar esa madaniyatni qilinishi kerak bo'lgan ishlar modeli sifatida tariflashadi. “Madaniyat bizning gurih ichidagi harakatlarimizni boshqaradi, egallagan darajamizni his qilishga majbur qiladi va boshqalar bizdan nima kutayotganligini va agar ular kutganidek yashamasak nima bo'lishini bilishimizga yordam beradi. Madaniyat guruhimizga qanday javobgarligimiz borligini ham anglatadi” Larson va Smalley (1972) [2, b. 24].

Linguakulturalogiya fani ana shu yuqoridaq tariflarda nazarda tutilgan tushunchalarni til suratida qidiradi va o'rganadi. Yani u biror bir matn yoki nutqning madaniyat aks etgan qismlarini o'rganadi. Demak, lingvokulturalogiya fani madaniyatning tilda ko'ringan qirralarini, madaniyatning tilga ta'sirini hamda til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganadi. Antropologlarning aytishicha, muloqot (kommunikatsia) ning faqatgina 35 % ini til tashkil etadi. [3, b. 25] Qolgan 65% ini esa madaniy faktorlar tashkil etadi; ular non-verbal kommunikatsia, umumiy madaniy qoidalar va qadriyatlardir. Bundan kelib chiqadiki, gapning tub mazmunini tushunish uchun grammatika va leksikaning o'zi kamlik qiladi va kishini madaniyatni o'rganishga majbur qiladi.

Bir-biridan tuban farq qiladigan ikki millat va ularni o'rganish xususida so'z borar ekan, bu millatlarni qiyoslab o'rganishning o'rni juda muhimdir. Ingliz tilini o'rganuvchi o'zbek o'quvchilari lingvokulturalogiya fanida har ikki millatning o'ziga xos xususiyatlari, xususan- o'xshash va farqli jihatlarini tadqiq qilishlari va solishtirishlari - bu haqdagi bilimlarni chuqurlashtirish bilan birga ikkinchi tilni mukammal egallahslariga yordam beradi. Chunki biror mamlakat madaniyatini to'liq bilmay turib uning tilida ravon so'zlashish qiyin. Ayniqsa bunda bilimlar mehmondo'stlik sohasida ko'zga yaqqol tashlanadi. Barchaga ma'lumki hamma mehmondo'stlikni xar hil tushunadi va u hamma xalqlarda har hil talqin qilinadi. Lekin hamma millat vakili ham o'zini qaysidir ma'noda mehmondo'st sanaydi, shular jumlasidan o'zbek va ingliz xalqlari ham.

Ammo biror xalqga mehmondo'stlikday bo'lib hizmat qilgan omil boshqa millatda qandaydir tushinmovchilik va shubhalar uyg'otishi mumkin. Ayniqsa xozirgi kunlarda xalqlar o'rtaqidagi turizm, diplomatic aloqalar, universitetlararo talaba almashishlar va xalqaro bozor munosabatlari rivojlangan bir vaqtida mehmondo'stlik konseptiga murojaat qilishga to'g'ri keladi.

"Mehmondo'stlik" bu abstraskt tushuncha bo'lib, uni alohida olib ko'rib o'rganish imkoniy yo'qligi, uni faqat urf-odat va a'nanalarga uyg'unlashib ketgan holda ko'rishimiz mumkin bo'lgani uchun u turli xalqlarda (ba'zan bir xalqning o'zida) turli ikkilanishlar va tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Ushbu muammoni qaysidir ma'noda yechimini topish uchun xalqlar o'rtaqidagi mehmondo'stlik tushunchasidagi farqlarni yoritish va mehmondo'stlikning umumiy parametrlarini ishlab chiqish zarurdir.

Bu tushuncha har ikki millatning milliy aytishuv va maqollarida ham yaqqol ko'rindi; **Uzb:** “O'z uyingizday o'tiring” = Eng: “Feel as at home” (uyingizdagiday his qiling), yoki “**My home is your home**” (mening uyim sizning uyingiz). Lekin quyidagi maqolning ingliz tilidagi ma'nodoshi yo'qdir: “**Mehmon kelar eshikdan, Rizqi kelar teshikdan**”. Mano jihatdan ushbu maqol – “mehmondan taom tejama”, “taomni deb mehmon chaqirishdan qaytma” degan ma'noni anglatadi.

Mehmondo'stlik tushunchasini til nuqtai nazaridan tahlil qilishda tildagi leksik birliklar, ularning turli konteksdagi turli ma'nolari, maqollar, iboralar bilan bir qatorda intonatsianing ham o'rni kattadir. Chunki yuqorida sanalganlarning bari og'zaki nutqda intonatsia orqali namoyon bo'ladi. Va biz bilamizki, turli intonatsia orqali bir gapni turli ma'nolar ifodalashda ishlatish mumkin. Ingliz va o'zbek tillarida taklif ma'nosidagi gaplar ham grammatic jihatdan "buyruq gap" qoidasi asosida yasaladi. Ingliz tili fonetikasiga binoan buyruq gap (Imperative Mood) da 2 hil intonatsia mavjuddir. Birinchisi- buyruq (command) ma'noda, ikkinchisi- taklif (invitation, offer) manusida. Agar gap buyruq ma'noda talaful qilinsa intonatsia yuqorida pastga tushadi, va agar taklif ma'nosida ifodalansa intonatsia yuqoriga ko'tariladi. Misol uchun: **1.Come in - [- . ||], 2. Come in- [_• ||]**. Huddi shu misolni o'zbek tilida ham qo'llasak bo'ladi: **1. Keling, kiring - [• γ • γ ||], 2. Keling, kiring- [◻◻γ ◻◻γ ||]**.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki mehmondo'stlik tushunchasini faqat "sharqga hos" yoki "g'arbg'a hos" deb talqin qilib bo'lmaydi. (Solishtirishdan maqsad ham bu emas). Bunday linguakulturalogik solishtirishlar natijasida olingan bilimlar ikki xalqning o'ziga xos milliy qadriyatlarini namoyon etadi, tilda kommunikativ ravonlikni oshiradi va linguakulturalogiya lingvografiya va madaniyatshunoslik sohasini boyitishga hizmat qiladi.

Mehmondo'stlik tushinchasi konsept sifatida yoritilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, mehmondo'stlik konseptining leksik darajada tilda namoyon bo'lishini ko'rib chiqdik. O'rganilayotgan konseptning kalit so'zi "mehmondo'stlik" konseptning nomi hisoblanadi. Tahlillar izohli lug'atlarning ta'riflari materiallari asosida bo'ladi. Macmillan Eng.D., Babylon Eng.D., Merriam-Webster Eng.D., AudioEng.D., va O'zbek tilining izohli Lug'atlaridan olingan ta'riflar orqali ingliz va o'zbek tillarida konseptning til surʼida qanday namoyon bo'lishi tahlil qilindi.

pratice
hospitality /'hɒspɪ'tæləti/ noun [U] ★

1 friendly and generous behaviour towards visitors and guests, intended to make them feel welcome: *We were delighted by the wonderful hospitality of the local people.*

♦ *Just a note to thank you for your hospitality.*

2 food, drink, and entertainment given to customers by a company or organization: *a hospitality suite/room/tent*

♦ *the hospitality industry (=hotels, restaurants etc)*

rasm -1

“Mehmono'stlik”/hospitality so'zining ma'nosini avval ingliz tilida ko'rib chiqsak: Macmillan English Dictionary [5, b.732] - “**hospitality**” so'ziga quyidagi ta'riflarni beradi: rasm-1.

1. (Mehmonlar va tashrif buyuruvchilar tomon ularni mammuniyat bilan qarshi olinganliklarini bildirish uchun ko'rsatilgan do'stona va olighthimmat munosabatlari).

2. (Biror kompaniya yoki tashkilot tomonidan istemolchilarga berilgan taom, ichimlik, va hursandchiliklar).

Merriam-Webster's Dictionary esa quyidagi ta'rifni keltiradi. [5, b.hospitality]
—noun, plural -ties. (ot, ko'plikda- hospitalities).

1. **the friendly reception and treatment of guests or strangers.**
(mehmonlar va notanishlarni do'stona kutib olish va do'stona muolala qilish)

2. **the quality or disposition of receiving and treating guests and strangers in a warm, friendly, generous way.** (mehmonlar va begonalarni iliq, do'stona, ochiqqo'llik bilan qabul qilish va muomala qilish tabiatini va sifati).

Sinonymlari sifatida esa quyidagi so'zlarni taqdim etadi.

— warmth, cordiality, geniality, friendliness, (iliqlik, samimiylilik, kirishmlilik, do'stonalik).

Shakllari: **hospitable** - adj. 1) generous towards visitors and guests (mehmon va tashrif buyuruvchilarga sahiy). 2) providing the conditions that something needs to exist in a place: hospitable environment. (biror joyda bo'lish uchun kerakli sharoitni taminlaydigan: mehmono'stlik sharoit).

hospitably- adv. – mehmono'stlik bilan - ravish.

Babylon English Dictionary – quyidagi ta'rifni beradi:

hospitality – (1 sense as a noun)- Kindness in welcoming guests or strangers. (mehmonlar yoki notanishlarni kutib olishdagi mehribonlik).

2. **business of catering and entertainment:** describes the business of providing services such as catering and entertainment
• **the hospitality industry**

Mehmono'stlik so'zining o'zbek tilidagi ma'nosini ko'radigan bo'lsak u o'z nomi bilan: mehmon + do'stlik, ya'ni mehmonga do'st bo'lmoq, do'stdek muomalada bo'lmoq degan ma'noni anglatadi. O'zbek tili izohli lug'ati “**mehmono'stlik**” so'zi qarshisiga “**mehmono'st- s. belgi oti**” [6, b. 462] deb yozgan. Demak mehmono'stlik mehmono'st sifatning belgi oti ekan. Lug'at “mehmono'st” so'ziga quyidagi ta'rifni keltiradi:

Mehmono'st (sifat)- Mehmonni, mehmon kutishni, mehmon chaqirishni yahshi ko'radigan; mehmonsevar.

Ingliz tilidagi “hospitality” ta'riflariiga o'zbek tilidagi “mehmono'stlik” ga berilgan ta'rifni solishtiradigan bo'lsak, o'zbek tilidagi tarifning o'ta sayoz va to'liq emas ekanligini ko'rishimiz mumkin. Chunki ingliz tiliga berilgan ta'riflarda aytildan –

mehmonlarga samimiy munosabatda bo'lish, mammuniyat bilan qarshi olish, sahiylik qilish, ochiqqo'llik, ochiqko'ngillilik bilan kutib olish, do'stona munosabatda bo'lish, hushnud qilish, taomlantirish kabi iboralar o'zbek tili imlo lug'atidagi mehmondo'stlik so'zi ta'rifida berilmagan. Lekin mustaqilligimizning 17 yilligiga bag'ishlab nashr etilgan yangi o'zbek tili imlo lug'atida bu so'zga ko'proq ta'rif berildi; mehmondo'stga hos hislat, xatti xarakat mehmon kutishni o'rniliga qo'yish [9,b.586].

Ilmiy tadqiqotda o'zbek mehmondo'stligi haqida yig'ilgan ma'lumotlardan kelib chiqib lug'atda aytilan "mehmon kutishni yahshi ko'radigan" degan ta'rif o'zbek mehmondo'stligini to'liq yoritib berolmaydi deb aytal olamiz. Shuning uchun ham hozirgi lug'at tahvilida, faqat lug'atga suyanib, -o'zbek xalqi uchun mehmondo'stlik faqat bitta ma'no yani "mehmon kutishni yahshi ko'rishlik" degan ma'noni bildiradi deyishimiz hato bo'ladi.

Quyida esa mehmon so'zining ham ma'nosini ko'rib chiqishga qaror qildik.

Mehmon- [f-t] 1. To'y, ziyofat yoki va shu kabi munosabat bilan yo'qlab kelgan (borgan) kishi. *Mehmon bo'lmoq. Mehmon qilmoq. Mehmonga aytmoq. Qutudor mehmonlarni ihlos va samimiyat bilan kutar, ziyofat quyuq-suyuqlar bilan to'la-to'kis davom etar edi.* A. Qodiriy, O'tkan Kunlar.

2. Majlis, yig'ilish, kengash va sh.k. ga chetdan chaqirilgan kishi. Sessiyaga chaqirilgan deputat va mehmonlar. Quriltoyda mehmon sifatida qatnashmoq. [6, b.462]. Yangi o'zbek tili imlo lug'atida bu so'zga ko'proq ta'rif berildi; keng fe'l, odamshinavanda, tanti [9, b.586] kabi sifatlar qo'shilib chop etildi.

Ingliz tilidagi lug'atlarda qaraydigan bo'lsak MED [4, b. 670] quyidagi izohni beradi: rasm-2.

guest¹ /geslt/ noun [C] ★★★

1 someone who you have invited to your home, for a party or a meal, or to stay the night: *tips for getting rid of unwanted guests* ♦ We've got guests staying this weekend. ♦ welcome/greet/receive a guest *The President and his wife were in the hallway, greeting their dinner guests.* → PAYING GUEST

2 someone who has been invited to a party, meeting, or other event by the people organizing it: *She was eager to mingle with the other party guests.* ♦ a-at He was a guest at our wedding. ♦ of They were at the Festival as the guests of a Greek businessman. ♦ invited guests *The ceremony will take place before 10,000 invited VIP guests.* ♦ honoured/distinguished guests *Welcome, Mr Prime Minister, distinguished guests, ladies and gentlemen.* 2a. someone who you invite to a restaurant, the theatre etc, and whose meal or ticket you pay for: *You're here as my guest.* 2b. someone who you take with you to a club where you are a member: *Please would members remember to sign in all guests before using the pool.*

3 someone who is paying to stay at a hotel or eat in a

restaurant: *the arriving/departing guests* ♦ *There is live music to entertain guests.* ♦ **hotel guest** *The indoor heated pool is free to hotel guests.*

4 someone who appears on a television or radio show that they do not regularly appear on: *our panel of celebrity guests* ♦ *My first guest tonight, famous for both her singing and acting talent.* ♦ *guest appearance* *The band agreed to make a guest appearance on his show.*

PHRASE *be my guest spoken* 1 used for saying that someone can do something that you are having difficulty doing, but are not able to do it yourself: *'Can I try opening it?' 'Be my guest.'* 2 you used as a polite reply to a request: *'Do you mind if I sit down?' 'Be my guest.'*

guest² /geslt/ adj 1 relating to guests: *guest list* *Is she on the guest list for our wedding?* 2 provided for guests to use: *a set of guest towels* ♦ *a TV in the guest lounge* 3 appearing by invitation to perform at an event: *a royal guest conductor with orchestras all over the world* ♦ *guest star* *The show frequently features well-known guest stars.* ♦ *guest speaker/lecturer* *Tonight's guest speaker is Peter Bell.*

guest³ /geslt/ verb [] if a famous person guests on a television or radio show, they appear in it on a particular occasion because they have been invited to it, if a famous person guests at a sports event or guests for a team, they play at the event or for the team

rasm-2

Ingliz tilidagi tariflarning 2a., 2b., 3., ko'rinishlari o'zbek tilida izohli lug'atda ular uchramadi, lekin ular ham kundalik hayotda ishlataladi.

Shuning uchun ilmiy tadqiqotda leksik birliklar tanlashda faqat lug'atga tayanmadik, balki, badiiy klassik asarlarimizdagagi mehmon kutish sahnalari yoritilgan matn, maqol va iboralar anglatgan malumotlarga ham suyanildi. Shu orqali "mehmondo'stlik"ning parametrlari ishlab chiqilishiga erishildi.

Ingliz madaniyatida ham O'zbek madaniyatida ham mehmondo'stlik/hospitality tilda mehmonga nisbatan g'amho'rlik qilish bilan namoyish e'tiladi.

Host.

-Now, my young guest, me thinks you're allycholly; I pray you, why is it? (Shakespeare. Two Gentlemen of Verona)[7, b.act-4, scene-2]

Demak, inglzlarda ham mehmondo'stlik mehmonning ko'ngliga qarash bilan birga uning kayfiyatini ham ko'tarishga harakat qilish va muammosi borday ko'rinsa uning muammosi nima ekanini so'rash, kayfiyati nima uchun tushkun ekanini so'rash, uning muammosiga qayg'urish bilan ham ko'rsatilar ekan. Bu holatni o'zbek tilida ham uchratish mumkin. – *O'Ituring, o'Ituring, mehmon, - dedi usta Farfi. – Oshg'a savzi bosildi-pishdi!* O'tkan kunlardan yana bir misol:

-*Nima qilmoqchi bo'lasiz, usta? –deb Otabek so'radi.*

- *Men o'zimning yangi mehmonimni ko'rpachaga o'tquzmoqchi bo'laman, - dedi kulib usta Alim [8, b. 261].*

Two Gentlemen of Verona dialogidan parchada mezbon mehmoniga "my guest/mening mehmonim deb murojaat qilsa keyingi qatorda mehmon ham mezbonni -mine host/mezbonim deb murojaat qilayotganini ko'ramiz.

Julia.

- *Marry, mine host, because I cannot be merry.*

Bunday murojat asosan mehmon va mezbon o'zaro tanish bo'lmasa ya'ni birinchi bor ko'rishayotgan bo'lsa ishlatalidi.

Konseptni qisqacha maqollar ko'rinishida ko'rsak, ikki xalq maqollari ma'nolarida ham o'hshashliklar ko'zga tashlanadi:

Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rар.- A guest sees more in an hour than the host in a year.,

Oyda kelganga — oyoq, Kunda kelganga — tayoq. -A constant guest is never welcome.

Tahlil qilingan ma'lumotlardan kelib chiqib mehmondo'stlik manosi quyidagi turlarga ajratildi:

1. Mehmondo'stlik –bu mehmonni qarshilash sifati

- Kindly welcoming
- Friendly reception
- Lutf bilan kutib olish
- Samiyimiylik bilan kutib olish
- Ochiq chehra bilan kutib olish

2. Mehmondo'stlik bu – kirishga yo'l qo'yish, qabul qilish

- Notanish va begonalarni ham uuga olib kirib mehmon qilish
- Chaqirilmagan mehmonlarni ham to'y, bazm, va hkz. ga kiritish
- Accepting information to our mind
- Letting someone enter our soul, heart
- Adoring others' opinion
- Letting to find the way to heaven
- To admit somebody to hearth

3. Mehmondo'stlik bu mehmonga qilinadigan hizmat sifati

- Hushmuomalalik bilan hizmat qilish
- Samimiylilik bilan hizmat qilish
- Chin dildan hizmat qilish
- Hursandchiligini bildirib hizmat qilish
- Well serving
- Yahshi sharoit bilan taminlash
- Havfsizligini taminlash
- G'amhorlik qilish
- Chiroyli buyumlar ishlatalish

4. Mehmono'stlik bu- insonlarni taomlantrish

- Providing with food and drink
- Paying for someone's food and drink (meal) at restaurant, bar etc
- Mehmonlar uchun dasturhon bezatish
- Mehmonning taomdan tanovul qilishini so'rash
- Mehmon uchun tansiq taom tayyorlash

5. Mehmono'stlik bu – insonlarni uyg'a, restoranga yoki boshqa joylarga taklif qilish

- Inviting someone to home to celebrate some event
- Biror bazm to'y, osh, challari, chillagurzon, tug'ilgan kun, unashtiruv, aqiba, kelin salom, qiz bazmi, o'gil to'y, uy to'y, muchal to'y, movlud va boshqa marosimlar bahona tanigan tanimaganlarni uyg'a taklif qilish
- Inviting someone to the theatre

Xulosa

Yuqorida keltirilgan O'zbek va Ingliz madaniyatiga hos bo'lgan ma'lumotlar, tushunchaga berilgan ta'riflar, romanlardan olingen misollarga tayanib "Mehmono'stlik" tushunchasini ikki halq o'ttasidagi "culture specific notion" emas, balki "universal concept" degan hulosaga keldik. Umuman "hospitality" so'zining lug'atda mavjudligi ham bu universal tushuncha ekanini tasdiqlaydi. Chunki asosan bir so'z bir til lug'atida bor bo'lib, ikkinchi tilda bu so'zning tarjimasi yo'qligi o'sha halqda bu tushuncha yo'qligini ko'rsatadi.

Shulardan kelib chiqib, "mehmono'stlik" - "universal specific concept degan to'htamga keldik. Shu o'rinda aytishimiz mumkinki, ham o'zbek va ham ingliz izohli lug'atlari "mehmono'stlik" tushunchasiga to'liq ta'rif bera olmagan. Ensiklopedik va falsafiy lug'atlarda esa ushbu asrlar osha meros bo'lib kelayotgan bu tushuncha haqida to'liq ma'lumot yo'qdir. Shuning uchun ham bu so'z ma'nolarini yoritishga, uning milliy madaniy, gender, kognitiv xususiyatlarini ochib berishga harakat qildikki ular ikki halqning ham lug'atlarini boyishiga hizmat qilsin.

Ingliz madaniyatini o'zbek madaniyatiga solishtirib o'rganish jarayonida ikkala tilda ham mehmono'stlik tushunchasi do'stlik, samiyimiylik, sahiylik, hushmuomalalik, g'amho'rlik so'zları orqali bir xil bayon etilishini kuzatdik. Ikki halq madaniyi bo'yicha ishlab chiqilgan mehmono'stlik belgilarini solishtirib, ular o'ttasida katta farqlar yo'qligi, ammo ular ijrosida farqlar kattaligi haqidagi hulosaga keldik.

Foydalilanigan Adabiyotlar Ro'yhati

1. Brown H.D, Principles of Language Learning and Teaching, 4th edition. San Francisco State University, 2000.
2. Larson D.N. and William A. S. Becoming Bilingual: A Guide to Language Learning. - New Canaan, CN: Practical Anthropology. 1972.
3. Birdwhistell R L. Kinesics and Context. – Philadelphia. PA: University of Pennsylvania Press, 1970.
4. Macmillan English Dictionary, new edit. Macmillan Publishers Limited 2007
5. Merriam-Webster's Dictionary. N.Y. Trident Press International, 1995.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 томли, 60.000 so'z va so'z birikmasi. Z.M. Ma'rufov tahriri ostida. M.: "Rus tili" nashriyoti. 1981
7. Marchette Chute. "Stories from Shakespeare". Cleveland, New York. 1956. ("The Two Gentlemen of Verona", act-4, scene-2.

8. Abdulla Qodiriy. roman “O’tkan Kunlar”. Sharq nashriyot- tahririysi. Toshkent. 2009
9. O’zbek tilining izohli lug’ati. 80.000 so’z va so’z birikmasi. A.Madvaliev tahriri ostida. Toshkent:. 2011